



MUHAMMAD IBN ABU BAKR USFURIYNING “ARBAIN
USFURIY” ASARINING AHAMIYATI

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharq falsafasi va germevtika kafedrası v.b.dotsenti

Pulatova Malohat Rixsibayevna.

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharq falsafasi va germevtika kafedrası 1-kurs magistri

Tursunboyev Abdulahad Abdubanno o‘g‘li

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Sharq xalqlari adabiyoti tarixida arba'in asarlar yozish an'ana bo'lganligi va bu an'ananing o'ziga xosligi yoritib berilgan. Jumladan, ar'bain an'anasi, nasrda yaratilgan arba'inlarning badiiyati uning arab, fors-tojik, turkiy xalqlar orasida keng tarqalganligi arba'in janrining adabiy an'ana darajasiga ko'tarilganligi, uning Qur'on va hadislar bilan uzviy bog'liqligi ochib berilgan.*

Аннотация: *В данной статье освещаются традиции написания произведений арбаин в истории литературы народов Востока и их особенности. В данной статье освещаются традиции написания произведений “арбаин” в истории восточной литературы и их особенности. В частности, раскрыты популярность традиции “арбаин”, проза среди арабского, персидско-таджикского и тюркского народов, их возведение в литературную традицию, а также показана ее связь с Кораном и хадисами.*

Annotation: *This article highlights the traditions of writing the Arbain's works in the history of Eastern literature and their features. In particular, the popularity of the Arbain's tradition, its genre features, prose and poetry among the Arab, Persian-Tajik and Turkic peoples, their elevation to the literary tradition, as well as its relationship with the Qur'an and Hadith are revealed.*

Tayanch so‘z va iboralar: *“Qur'on” oyatlari, hadislar, arba'in, “Arba'in”.*



Опорные слова и выражения: Аяты Корана, хадисы, арбаъин, “Арбаъин”.

Keywords and expressions: The verses of the Qur'an, Hadith, Arbain.

Sharq mumtoz adabiyotida “Arba’in” – “Chihil hadis” asar yozish, ya’ni 40 ta hadisni bir yerga jamlab, uning ma’nosini oddiy xalqqa tushuntirib berish, unga sharh yozish an’ana bo’lgan. Har bir davrning o’z “Arba’in”lari mavjud bo’lib, ularda aniq mavzu va maqsad ilgari surilgan. Payg’ambarimiz Muhammad (s.a.v.)dan “Kimki, mening hadislarimdan qirqtasini yod bilsa, unga amal qilsa va uni boshqalarga o’rgatsa, qiyomat kuni mening shafomatim ostida bo’ladi”, –degan hadis yetib kelgan. Shunga ko’ra hadislardan 40 tasini yodlab olishga va ularni xalqqa yetkazishga intilganlar. “Arba’in”ning lug’aviy ma’nosi: –40 demakdir. Shuningdek, 40 kun chilla o’tirish ya’ni, sufiylarning 40 kun xilvatda riyozat chekishlari va ibodatlari hamda, inson dunyoga kelgan kundan 40 kunni va vafotidan keyingi 40 kunni ham anglatadi.¹ Qirq kun –“poklanish” davri deb, ataladi.

O’rta asr mutafakkirlarining payg’ambar Muxammad (s.a.v.) ning turli mazmundagi ahloqiy hamda islom ahkomlariga oid hadislardan 40 tasini tanlab, bir yerga jamlaganlar. Jamlangan qirqta hadisning ma’no-mohiyatini oddiy xalqqa osonroq tushuntirishga intilganlar. Bunda nasr va nazmdan unumli foydalanganlar.

Biz ushbu maqolamizda O’zbekiston Respublikasi Toshkent davlat sharqshunoslik instituti huzuridagi Abu Rayhon Beruniy nomidli Sharq qo’lyozmalari markazining asosiy fondida saqlanayotgan “Arba’in” asarlari qo’lyozma nusxalarini haqida ba’zi ma’lumotlarni berib o’tishni maqsad qildik.

Toshkent davlat sharqshunoslik instituti huzuridagi Abu Rayhon Beruniy nomidli Sharq qo’lyozmalari markazining asosiy fondida bir necha o’nlab “Arba’in”– “Chihil hadis” asarlari va ularga yozilgan sharhlar saqlanmoqda. Sharq qo’lyozmalari fondida saqlanayotgan “Arba’in” asarlari hali-hanuz ilmiy muomilaga kiritilmagan. Mumtoz adabiyotimizda Jomiy, Navoiyning “Chihil hadis” – “Arba’in” asarlari borligini bilamiz va ular ilmiy muomilaga kiritilgan biroq, Respublikamizda mavjud

¹ Muhammad G’iyosuddin. “G’iyos ul-lug’at”. 1-jild. (Nashriyoti adib). 1997-y.



qo‘lyozma fondlarida saqlanayotgan arab, fors va turkiy tillarda yozilgan “Arba’in” asarlari matnshunoslik, adabiy manbashunoslik nuqtai nazaridan to‘liq o‘rganilmagan.

Toshkent davlat sharqshunoslik instituti huzuridagi Abu Rayhon Beruniy nomidli Sharq qo‘lyozmalari markazining asosiy fondi kartatekalarini ko‘zdan kechirganimizda 80ga yaqin arba’in asarlari qo‘lyozmalari va ularning nusxalari mavjudligi ma’lum bo‘ldi.

Jumladan;

Yahyo bin Sharofiddin an-Navaviyning “Chihil hadis” asari (arab tilida);

Jalol bin Muhammad bin Ubaydulloh al-Qoyiniy al-Buxoriy al-Hiraviy “Arba’in fil ahloq” asari (arab tilida);

Usfuriy Muhammad bin Abu Bakrning “Arba’in Usfuriy” asari (arab tilida);

Majdiddin Sharof bin al-Muyid al-Bog‘dodiyning “Arba’in” asari (arab tilida);

Abdulazim al-Qaviy bin Abdulloh al-Mahtadiyning “Arba’in fil ahloq” asari (arab tilida);

Abdurahmon Jomiyning “Chihil hadis” asari (fors tilida);

Alisher Navoiyning “Arba’in” asari (turkiy tilda);

Muhammad Nomrodning “Chil hadis manzuma” (arab tilida) asari;

Abu Tohir Muhammad bin Hasan Aliy Ushiyning “Arba’in hadis” asari (arab tilda);

Sayid Ahmad Vasliy Samarqandiyning “Chihil hadis manzuma” asari fors tilida;

Muhammad al-Jazariy ash-Shofiyning “Arba’in al-masoil” asari ;

Abduljalil ibn Muhammad Ibrohimning “Arba’in” asari (turkiy tilda);

Ash-Shayx Muhammad al-Omosaviyning “Arba’in al-mavsum bi shifai al-qulub” asari (fors tilida);

Amir Sayid (bin) Aliy Shahob Hamadoniyning “Chihil hadis dar sifat fuqaro” va “Arba’in al-Oliy” hamda “Chihil hadis” asarlari (fors tilida);



Abdullatif bin Shayx Sulaymon Turbatiyning “Chil hadis manzuma” asari (fors tilida);

Mir Shayx ibn Nuriddin Muhammad Puroiniyning “Chil hadisi manzuma” asari (fors tilida);

Muhayyirning “Arba’in manzuma” asari (turkiy tilda) kabi ko‘plab arab, fors va turkiy tillarda yaratilgan “Arba’in” asarlari va ularning bir necha qo‘lyozma nusxalari saqlanmoqda.

Bulardan tashqari muallifi noma'lum arba'inlar ham talaygina.

Xoji Xalfa o‘zining “Kashf uz-zunun” nomli qomusi va uning ilovasi bo‘lgan “Izoh ul-maknun” asarida arba'in hadis haqida yozilgan asarlardan to‘qson beshtasini sanab o‘tadi

“Arba’in” yozishning o‘ziga xos qonun - qoidalari bo‘lib, bunda muallif avval 40 hadisni jamlash maqsadini va bu hadislarning roviylarini qayd etadi. So‘ngra Alloh va uning payg‘ambari Muhammad (s.a.v.)ga hamdu sanolar bilan boshlaydi. Hadislarning sanog‘i raqam bilan beriladi. Har bir hadis albatta sanadi va roviylari bilan keltiriladi. Ba’zi “Arba’in”larda har bir hadisdan so‘ng uning she’riy sharhi berilsa, ba’zilarida keltirilayotgan 40 ta hadisni to‘g‘ri anglash uchun hadisdan so‘ng bir necha hikoyat va rivoyatlar beriladi. Bu esa arba'in an'anasining o‘ziga xos hususiyatlaridandir.

“Arba’in” yaratish an'anasi asoschilaridan biri Abu Zakariyo Yahyo ibn Sharofiddin Imom Navaviy (631-676y) deyiladi. Uning “Arba’in” asari ancha mashhur. Qirq ikta hadisni o‘zida jamlagan bu asar muqaddimasida olim “Arba’in” yozish maqsadini shunday keltirib o‘tadi: *“Qirq hadis” yozgan olimlarning ba’zilari aqoidga oid, dinning turli masalalari – zuhd, odob, nasihat va boshqa mavzudagi hadislarni to‘plashgan. Ularning barchasi juda go‘zal yozilgan. Alloh ulardan rozi bo‘lsin. Men esa bu mavzularning hammasidan ham muhimroq bo‘lgan bir mavzuda qirq hadis to‘plashni ma’qul ko‘rdim. Ya’ni, bu kitob ana shu mavzularning barchasini o‘z ichiga jamlashi lozim. Undagi hadislarning barchasi dinning eng buyuk asoslaridan, olimlar islomning tamali deb qabul qilgan yoki islomning yarmi yoki uchdan biri, deb e’tirof etilgan masalalarni ta’riflaydigan masalalardir.*



*Tanlangan 40 hadisning barchasi sahih bo'lishiga e'tibor berdim. Bu hadislarning aksariyati Imom Buxoriy va Imom Muslimning sahihlarida mavjud...*² deb yozadi.

Navaviyning “Arba'in” asarining yozilgan yili noma'lum, asar arab tilida yozilgan bo'lib, o'z ichiga 42 ta hadisni jamlagan. Hadislar raqamlab berilgan. Aytilayotgan hadisdan avval uning isodi keltirilgan. Har bir hadis batafsil sharhlangan. Asar turli davrlarda, turli xattotlar tomonidan ko'chirib kelingan. Fondida saqlanayotgan ushbu asarning qo'lyozma nusxalari xattotlik va kitobat san'atining nodir namunalaridan hisoblanadi.

Arba'in asarlari orasida Navaviy “Arba'in”ining 12 ta qo'lyozma nusxasi mavjudligi va bu qo'lyozma nusxalar “Shamoili an-Nabiy”, “Hoshiya”, “Al-Hisn ul-hasiyn min kalam sayyid al-mursaliyn”, “Vasiyati Imomi A'zam”, “Sharhu odobi al-munozara” kabi mashhur asarlar bilan kitobot qilinganligi uning xalq orasida ancha mashhur bo'lganligini bildiradi. Bu esa “Arba'in” asarining yanada qiymatini oshiradi.

Toshkent davlat sharqshunoslik instituti huzuridagi Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharq qo'lyozmalar markazi fondida hikoyalar bilan sharhlangan arba'inlar ham uchraydi. Ulardan biri “Hadisi Usfuriy”dir. Bu asar arab tilida yozilgan bo'lib, “Arba'in Usfuriy” nomi bilan ham mashhurdir. Uning muallifi Usfuriy Muhammad bin Abu Bakr Lohuriy bo'lib, bu olim haqida yetarli ma'lumotga ega emasmiz. Shuningdek, “Hadisi Usfuriy”ning yozilgan sanasi ma'lum emas. Biroq, uning turli yillarda xattotlar tomonidan ko'chirilgan qo'lyozma va toshbosma nusxalari qo'lyozmalar fondida saqlanmoqda. Ulardan 1310/1892 yilda nomalum xattot tomonidan ko'chirilgan. inv. № 5791-V raqamli (40 varaq; 171-131 sahifalar) qo'lyozma nusxasi va huddi shu asarning sharhi ya'ni “Sharh ul-arba'in” 1306/1888 yilda noma'lum xattot tomonidan ko'chirilgan (arab tilida, 56 sahifadan iborat) qo'lyozma nusxasi inv. №17127 raqami ostida saqlanadi.

Shuningdek, 1879 yilda Ibrohim Eshmavod tomonidan nashr qilingan “Hadisi arba'in sharhi” nomli, inv. №15667 raqamli Qozon bosma (19,5x12,5 o'lchamli, 131

² Qirq hadis. Imom Muhiddin Zakariyo ibn Sharaf Navaviy. – T., “Movaraunnahr”.



sahifali) nusxasi, shuningdek, 1318/ 1900-1901 yillarda Istanbulda chop etilgan, inv. №17244 raqamli (15x24 o'lchamli, 46 sahifali) "Hadisi arba'in sharhi" nomli toshbosma nusxalari mavjud.

"Hadisi Usfuriy" ya'ni "Arba'in Usfuriy" asrimizning boshlarida Bositxon ibn Zohidxon Hakim ash-Shoshiy tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan bo'lib, 1910 yilda Toshkentda nashr ettirilgan. Tarjimon Bositxon ibn Zohidjon Hakim ash-Shoshiy uni "Misboh ul-anvor" ("Nurli mash'al") deb atagan. Zaruriy hadislar va ajoyib hikoyatlarni o'z ichiga olgan bu asar xalq orasida tez tarqalib, "Nuri anvor" nomi bilan ham mashhur bo'lgan. Ushbu asar O'zbekiston Respublikasi FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida № inv. 605 raqami ostida saqlanmoqda.

Asar maxsus ilmiy tadqiqot mavzui bo'lmagan biroq, 1993 yili O'z.FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondi mudiri, tarix fanlari doktori, fors va arab tillarini mukammal bilgan olim Mahmud Hasaniy tomonidan "Hadisi Usfuriy" nomi bilan (izohlar ostida) nashr ettirilgan. Asarning so'z boshisida Mahmud Hasaniy "Hadisi Usfuriy"ning arab tilidan o'zbek tiliga o'giruvchi mutarjim haqida va uning ko'pgina ilmiy asarlari haqida ma'lumot beradi³.

"Hadisi Usfuriy"da 40 ta muayyan hadis raqam bilan ajratilgan. Ajratilgan har bir hadis bir va bir necha rivoyat, hikoyatlar bilan to'ldirilgan. Keltirilgan hikoyatlar qimmat shundaki, unda oxirat dunyosidan habar beriladi. Islom ahkomlari batafsil bayon qilinadi. Mavzu doirasidagi ahkomlarning har biri Qur'on oyatlari va yana bir necha hadislar bilan dalillangan. Qur'oni Karimdagi ba'zi oyatlarning ta'sir kuchi haqidagi hadislar va shu hadislarini sharhlovchi rivoyat va hikoyatlarda berilgan hadislar mazmuni boshqa bir necha hadislar bilan to'ldirilgan. "Hadisi Usfuriy"da berilgan 40 ta hadisni sharhlashda 13 ta hadis va Qur'oni Karimdagi 23 ta oyat, 66 ta rivoyat va hikoyatlar keltirilgan.

Misol uchun, 12- hadisni sharhlashda 4 ta oyat va 2 ta hikoyat keltiriladi. Shuningdek, bir necha hadislarining yuzaga kelish shart-sharoitlari va ba'zi oyatlarning nozil bo'lish sabablari hikoyatlar bilan izohlangan. Hadislarning

³ Muhammad ibn Abu Bakr. Hadisi Usfuriy .- T.: Movaraunnahr. 2002.



mazmuni ravon, sodda til bilan ishonarli va ta'sirli rivoyatlarda aks etgan. Ko'pgina hikoyatlarning qimmatini shundaki, unda Payg'ambarlarning hayotlaridan misollar keltiriladi. Bu esa hadis qiymatini yanada oshiradi.

“Arba'in”ning markazida Allohning qahridan qo'rqish va marhamatiga umid qilish turadi.

“Hadisi Usfuriy”da hadislarni rivoyat qilish qoidasiga qat'iy amal qilingan⁴. Asarda bir shaxsning bu dunyoda qilgan barcha amallari, toat-ibodatlar u dunyo (oxirat dunyosi)da erishadigan darajasi (jannati yoki do'zaxiy; rohat yoki azob) ga sabab bo'lishi rang-barang hadislar va hikoyalarda o'z aksini topadi.

Misol uchun “Hadisi Usfuriy”da saxiylik va baxillik haqidagi hadis quyidagicha sharhlanadi:

“Hazrat Ali roziyolloxu anhu payg'ambar alayhissalomdin rivoyat qilibdurlarki: Ya'ni, payg'ambar (a.s.) aytibdurlarki, sadaqa bergan kishini sadaqasi ani qo'lidin chiqqanidin so'ngra miskinini qo'lig'a yetmasdin burun Alloh taolo nazdig'a yetib, sadaqa bergan kishig'a xitob qilib besh kalima so'z aytur. Birinchi so'zi shulki, ey sahiy, meni o'zim kichik erdim, sen meni katta qilding. Ikkinchisi, ey saxiy, men o'zim kam edim sen meni ko'p qilding, uchinchisi, - ey saxiy, men senga dushman edim, sen meni o'zingga do'st qilding. To'rtinchisi, ey saxiy, men fano bo'lur edim, sen meni doimiy va barqaror va boqiy qilding. Beshinchisi, ey sahiy, avval sen menga hirzu muhabbat va posbonlik qilur eding, emdi men senga hirzu muhabbat va posbonlik qiladurg'on bo'ldim, deb xitob qilur.

H I K O Y a T

Hazrat Oyisha roziyollohu anho payg'ambar alayhis salomdin rivoyat qilibdurlarki, bir kuni payg'ambar (a.s.) oldilarig'a bir xotun kelib: “Yo rasululloh, meni o'ng qo'lim shol bo'lg'ondur. Janobingiz Alloh taologa duo qiling. Shoyad qo'lim shifo topib avvalgi holidek bo'lsa”, - dedi. Payg'ambar alayhis salom so'rdilarki, “Ey xotun, qo'ling nima sababdin shol bo'lub erdi? Ul xotin javob berdiki, “Yo rasululloh, bir kechasi tushumda qiyomat qoyim bo'ldi va hamma xaloyiq

⁴ Hadis va Hayot. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. 1-juz. “Sharq” nashriyot matba. T.:2003. 24-bet (160 b.)



mahsharg'a jam bo'ldi va farishtalar ba'zi odamni do'zaxga va ba'zilarini jannatg'a olib ketdilar. Men tomosha qilib yurar erdim, nogah nazarim do'zax tarafig'a tushdi. Ko'rdimki, mening onam do'zahda qattiq azobda yotibdur. Lekin o'ng qo'lida bir parcha charbi va chap qo'lida bir parcha latta bordurki, qaysi tarafdin do'zax o'tini issig'i ta'sir qilib kuydursa, ushal tarafg'a ul charbi birlan lattani tutib o'zini issig'din saqlamoqg'a mashg'uldur. Ani bu holda ko'rub, ey ona, senga nima kulfat bo'ldiki, mundog' azobdadursan va holi dunyoda Xudoyi taolog'a doim toat va ibodat qilur erding, deb hol so'rab erdim, onam aytdiki, ey farzandim, dunyoda ko'p ibodat qilur erdim. Lekin dunyoda baxil erdim va hargiz sadaqa va saxovat qilmas erdim. Magar ushbu charbi birla lattani saxovat qilib erdim, emdi ushbu joyg'a kelib mundog' azobg'a giriftor bo'ldimki, bul joy baxillarning joyidur. Har gal do'zax o'ti kuydursa, ushbu charbi va latta birlan parda qilib, o'zimni o'tdin saqlarman, dedi. Andin so'ngra, otam qaydadur, deb erdim, otang dunyoda saxiy erdi. Aning-chun hozir jannatda saxiylarning joyidadur, - dedi. Andin so'ngra jannatg'a keldim. Ko'rdimki, otam jannatda Havzi Kavsarning labida turubdur. Yo rasululloh, siz Kavsardin suv olib, hazrat Abu Bakr Siddiqg'a berursiz. Ul kishi hazrat Umarg'a va ul kishi Usmong'a va ul kishi hazrat Ali roziyollohu anhumg'a uzaturlar. Hazrat Ali meni otamg'a uzaturlar va otam o'zga ummatlaringizg'a berib, hammani Kavsardin serob qilib turubdur. Bu holni ko'rub otamg'a arz qildimki, ey ota, mening onam sizni xotuningiz erdi va Alloh taologa toat va ibodat qilur erdi va siz andin rozi erdingiz. Emdi onam do'zaxning bir vodiysida shundog' azobg'a giriftordur. Do'zaxning issiqligi birla doim tashna, suvg'a muhtojdur va munda siz hamma odamlarg'a Kavsardin suv berib serob qilur ekansiz. Emdi ushal bechora onamg'a ham bir kosa suv bering, deb iltijo qilib erdim, otam menga qarab, ey farzand, seni onang baxillarni va gunohkorlarni joyidadurki, payg'ambar alayhis salomning havzi Kavsarlarini Alloh taolo baxillarg'a va gunohkorlarga harom qilg'ondur. Alarg'a Kavsar suvidin berib bo'lmas, dedilar. Andin so'ngra o'zim ichmoq uchun suv talab qilib erdim, bir kosada Kavsardin suv olib berdilar va men olib borib onamg'a ichurdim. Onam o'shal suvni ichgan zamon g'oyibdin bir ovoz keldiki, yo xotun, Alloh taolo qo'lungni shol qilsunki, payg'ambar sallolohu alayhi vassallamni havzi Kavsarlaridin suv kelturub



do‘zaxdagi baxilg‘a ichurding. O‘shal vaqtda uyqudin bedor bo‘ldim. Ko‘rdimki, qo‘lum shol bo‘lubdur, dedi. Bu so‘zni eshitgandin so‘ngra payg‘ambar alayhis salom unga qarab, ey xotun, onangni baxillig‘ini kasofati dunyoda senga mundog‘ ta‘sir qilg‘on bo‘lsa, qiyomatda o‘zig‘a qandog‘ ta‘sir qilurki, ani Alloh bilur, voy onangni holig‘a, deb asolarini olib o‘shal xotunni qo‘lig‘a qo‘ydilar va dedilarki, - Alloh ushbu xotunni ko‘rgan tushining hurmatidin qo‘lig‘a shifo bergil, deb erdilar, o‘shal zamonda Alloh taolo karam qilib shifo ato qildi va qo‘li avvalg‘i holidek bo‘ldi.”

Insonning dilidan o‘tkazgan yaxshi-yomon fikrlari, tili bilan aytgan yaxshi-yomon gap-so‘zlari, qo‘li bilan bajargan yaxshi-yomon amali Alloh nazdida qay darajada bo‘lishi bir necha hadislarda va ajabtovur hikoyatlarda berilgan.

Muallif Imom Muhammad ibn Abu Bakr inson tarbiyasi va axloqini poklaydigan hadislarni saralab, har bir hadisning mazmuniga xos bo‘lgan tarbiyaviy hikoyatlarni keltiradi. Undagi hadislar inson tafakkuri ruhiyatini boyituvchi hikoyalarda talqin etiladi. Hikoyalarda berilgan ilohiy obrazlar insoniyatni ezgulikka yetaklaydi ya‘ni, insonni u dunyoda erishadigan rohat-farog‘atiga bu dunyoda bajaradigan yaxshi amallari sabab bo‘lishiga ishontiradi. Bu asar “Arba’in” an‘anasining yana bir yorqin sahifasini, hadislar targ‘ibining yana bir yo‘nalishini tashkil qiladi.

Arba’in sirasiga kiritilgan hadislari Quron oyatlari bilan mushtarak manoda bo‘lib, qisqa va ravonligi o‘quvchining yodlashi va tushunishiga qulaylik keltirgan. Quron va hadis mavzulariga asoslangan Arba’in asarlari sharq adabiyotida diniy nuqtai nazardan ibratli bo‘libgina qolmay, balki sharq mumtoz adabiyotining an‘anachilikning o‘ziga xos an‘ana yaratilishiga zamin yaratdi.

Shuningdek, nasr va nazmda yaratilgan “Arba’in” asarlari islom dinining asl mohiyatini sodda va g‘aroyib hikoyatlar hamda badiiy timsollar bilan xalq ommasi qalbiga chuqur kirib borishga hizmat qilgan. Bu esa “Arba’in” asarlarining badiiy xususiyatlarini belgilaydigan omillardan biridir.